Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

MINTAQADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA O‘RNI

ABDURAIMOV ABDUNABI UZBEKBOY O`G`LI
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti
Tayanch doktarant

Annotatsiya. Maqola O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy, ekologik va institutsional ahamiyatini kompleks ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda IMRAD metodologiyasi qo'llanilib, statistik tahlil, korrelyatsion-regressiv modellashtirish va mintaqaviy solishtirish usullari ishlatildi. Tahlil natijalar shuni ko'rsatdiki, qayta tiklanuvchi energiya ulushi 2019-2024-yillarda 12,3%dan 23,0%ga o'sdi, CO_2 emissiyasi intensivligi 75%ga kamaydi, iqtisodiy o'sish bilan ekologik yuklama o'rtasida "ajralish" jarayoni boshlandi. Mintaqaviy tahlil agrar, industrial, postindustrial va resurs mintaqalari uchun maxsus yashil iqtisodiyot strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini asosladi. Tadqiqot natijalari siyosat ishlab chiqaruvchilar va amaliyotchilar uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so`zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, mintaqaviy tafovvutlar, CO_2 emissiyasi, resurs samaradorligi, aylanma iqtisodiyot, energiya samaradorligi.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda global iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning intensiv iste’moli va ekologik tangliklar dunyo hamjamiyatini an’anaviy iqtisodiy rivojlanish modellarini qayta ko‘rib chiqishga majbur etmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O‘zbekiston, ushbu globallashgan jarayonlar kontekstida yashil iqtisodiyotga o‘tishni strategik ustuvorlik sifatida belgilagan. Mintaqada yashil iqtisodiyotni rivojlantirish nafaqat ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishning integratsion mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Xalqaro tashkilotlar ta’kidlashicha, yashil iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga moslashish va resurs samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirishga qaratilgan yangi rivojlanish yondashuvidir. Ushbu konseptual yondashuv mintaqa mamlakatlarining milliy strategik hujjatlarida aks etgan.

O‘zbekiston, Markaziy Osiyo mintaqasining markazida joylashgan davlat sifatida, o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ekologik omillarga alohida e’tibor qaratmoqda. Mintaqadagi resurslarning samarasizligi, suv tanqisligi va qishloq xo‘jaligida an’anaviy usullarning ustunligi yashil transformatsiyani jadallashtirishni talab qiladi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, yangi "yashil"

Published: 05.06.2026

Cite this article: Abduraimov Abdunabi Uzbekboy o`g`li (2026). Mintaqada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning ahamiyati va o‘rni. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/813

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

ish o‘rinlarini yaratish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun ham muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, World Bank iqtisodiy modellashtirish natijalari ma`lumotlariga ko‘ra, iqlim o‘zgarishiga moslashuv choralarining ko`rilmasligi natijasida 2050-yilga kelib O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti kutilgan darajaga nisbatan 10 foizga past bo‘lishi prognoz qilinadi [2]. Mamlakatimizda amaliy choralar sifatida yashil investitsiyalarni jalb qilish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, texnologik uzilishlarni boshqarish va inson kapitalini qayta tayyorlash bo‘yicha tizimli yondashuv shakllantirilib borilmoqda. O‘zbekistonda qabul qilingan, 2019-2030 yillarga mo‘ljallangan «Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi»ning ham asosiy maqsadi iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik asosida ta’minlash bo‘lib, strategiya to‘rtta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: energetika tizimlarini modernizatsiyalash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, suv va qishloq xo‘jaligi resurslaridan samarali foydalanish hamda «yashil» texnologiyalar va moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda mintaqada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning ahamiyati va o'rnini ilmiy asoslash uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot dizayni sifatida aralash (mixed-methods) uslub tanlandi, bu esa miqdoriy ko'rsatkichlar tahlili va sifatli ekspert baholarini integratsiya qilish imkonini beradi. Metodologik asos sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM), Yashil Iqtisodiyot bo'yicha Hamkorlik Dasturi (PAGE) va Yevropa Ittifoqining "Yashil Bitim" (European Green Deal) tamoyillari xizmat qildi.

Ma'lumotlar bazasi quyidagi manbalardan shakllantirildi: O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligining rasmiy yillik ma'lumotlari, Jahon Bankining "World Development Indicators" ma'lumotlar bazasi, BMT Taraqqiyot Dasturining (UNDP) mintaqaviy hisobotlari.

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston bo'yicha olib borilgan statistik tahlil natijalari mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining ijobiy dinamikasini, shu bilan birga, muammo va imkoniyatlarning murakkab tabiatini ko'rsatmoqda. Quyida asosiy yo'nalishlar kesimida olingan natijalar tizimlashtirilgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTM) ulushi va dinamikasi. So'nggi besh yillikda (2019–2024) O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hajmi sezilarli darajada oshdi. 2025-yilning o'zida mamlakatda qayta tiklanuvchi manbalardan 9 mlrd kVt·soat "yashil" energiya ishlab chiqarildi, bu ko'rsatkich avvalgi yillarga nisbatan ikki baravar yuqoridir. Jami elektr energiyasi balansida gidroenergetikani hisobga olgan holda "yashil" energiyaning ulushi 23% ga yetdi. Hozirgi kunda mamlakatda umumiy quvvati 4,68 GVt bo'lgan 12 quyosh va 5 shamol elektr stansiyalari faoliyat yuritmoqda [4].

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

Karbonat angidrid (CO_2) emissiyasi va "uglerod moliyasi" samaradorligi. O'zbekiston iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning faol ishtirokchisiga aylandi. Jahon bankining iCRAFT loyihasi doirasida mamlakat energiya samaradorligini oshirish va uglerod emissiyasini kamaytirish bo'yicha sa'y-harakatlari uchun 7,5 mln dollarlik grant mablag'ini qo'lga kiritdi. Ushbu loyiha natijasida 500 ming tonna issiqxona gazlari emissiyasi qisqartirildi va mustaqil auditorlar tomonidan tasdiqlandi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2000–2022-yillar oralig'ida O'zbekistonning YAIM birligiga to'g'ri keladigan karbonat angidrid emissiyasi intensivligi taxminan 75% ga kamaygan. Bu ko'rsatkich mamlakatning iqtisodiy o'sish va ekologik yuklama o'rtasidagi "ajralish" (decoupling) jarayoniga kirganini anglatadi. Biroq, mutlaq qiymatlarda CO_2 emissiyasi hajmi hali ham Markaziy Osiyoda Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda turadi, bu esa sanoatni modernizatsiya qilish zaruriyatini ko'rsatadi.[3]

Resurs samaradorligi va chiqindilarni boshqarish. Resurs unumdorligi (birlik resurs sarfiga to'g'ri keladigan YAIM) bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatadiki, Bugungi kunda mamlakatimizda suvni tejashga qaratilgan zamonaviy texnologiyalar 2,6 million gektar maydonda joriy etilib, bu umumiy sug‘oriladigan yerlarning qariyb 60 foizini tashkil etmoqda. Taqqoslash uchun aytganda, 2017-yilgacha bunday texnologiyalar atigi 19 ming gektar yerda qo‘llanilgan. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida esa har yili o‘rtacha 2,5 milliard kub metr suvni tejash imkoniyati yaratilmoqda. "Yashil" energiyaga o'tish natijasida 2024-yilda 2,73 mlrd kub metr tabiiy gaz tejaldi va 4 mln tonna zararli chiqindilar atmosferaga chiqarilishining oldi olindi [4]. Chiqindilarni boshqarish sohasida esa muammolar saqlanib qolmoqda. 2021-yilda mamlakatda 6 mln tonna maishiy qattiq chiqindi hosil bo'ldi (jon boshiga 165d kg), bu jahon o'rtacha ko'rsatkichidan ikki baravar past bo'lsa-da, qayta ishlash darajasi atigi 25% ni tashkil etdi. [5] Bu holat "aylana iqtisodiyot" (circular economy) tamoyillarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi.

Yashil o'sish indeksi (GGI) bo'yicha xalqaro solishtirma tahlil. OECDning "Yashil o'sish ko'rsatkichlari" metodologiyasi asosida O'zbekistonning 1990–2022-yillardagi holati baholandi. Mamlakat energiya intensivligini pasaytirish va qayta tiklanuvchi manbalarni rivojlantirish bo'yicha ijobiy tendensiyalarga ega bo'lsa-da, havo ifloslanishi va chiqindilarni qayta ishlash ko'rsatkichlari bo'yicha mintaqaviy o'rtacha darajadan ortda qolmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida belgilangan maqsadlarga erishish uchun yashil investitsiyalarni jalb qilish hajmini yiliga kamida 12–15% ga oshirish talab etiladi. [5]

Mintaqaviy tafovutlar va yashil iqtisodiyot strategiyalari. O'zbekistonning turli mintaqalari yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mintaqalarning iqtisodiy ixtisoslashuvi va tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

darajasiga ko'ra, ularni toifalarga ajratish va har bir toifa uchun mos yashil iqtisodiyot strategiyalarini ishlab chiqish zarurdir (1-jadvalga qarang).

1-Jadval.

O'zbekiston mintaqalarining yashil iqtisodiyot strategiyalari bo'yicha tasnifi88

Mintaqa turi	Xususiyatlari	Yashil iqtisodiyot strategiyasi
Agrar mintaqalar	Qishloq xo‘jaligi ustunlik qiladi, suv va yer resurslari bilan muammolar mavjud.	Tomchilatib sug‘orish, organik dehqonchilik, resurs tejamkor texnologiyalar
Industrial mintaqalar	Qayta ishlash sanoati rivojlangan, ekologik bosim yuqori	Energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, ifloslantiruvchi korxonalarni yopish
Postindustrial mintaqalar	Xizmat ko‘rsatish, moliya, ta’lim ustunlik qiladi	ESG-investitsiyalar, yashil moliya, yashil standartlashtirish
Resurs mintaqalari	Mineral va o‘rmon resurslariga boy	O‘rmon muhofazasi, ekologik toza qazib olish texnologiyalari, klaster yondashuv

O'zbekistonda agrar mintaqalar asosan viloyatlarning chekka qishloq joylaridan tashkil topadi. Shahar joylarda ishlab chiqarish, sanoat rivojlangan. Shuning uchun shahar atroflari ancha industriallashgan, shundan kelib chiqib, turli mintaqalarga turlicha yondashuvlar qo`llagani maqsadga muvofiq deb bilamiz. Agrar hududlar suv tanqisligi va yer resurslarining unumdorligi pasayishi muammolariga duch kelmoqda. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, bunday mintaqalarda tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish suv sarfini 30–40% ga kamaytirish imkonini beradi [6]. Organik dehqonchilikni rivojlantirish esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. FAO ma`lumotlariga ko`ra, Markaziy Osiyo fermerlari uchun organik mahsulot yetishtirish eksport bozorlarida raqobatbardoshlikni oshiradi, ayniqsa Yevropa bozorlariga yo`l ochadi [7]. Industrial mintaqalarda energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega. Ma`lumotlarga ko'ra, ushbu mintaqalarda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish orqali energiya intensivligini 25% ga qisqartirish mumkin [8]. Postindustrial mintaqalarda (Toshkent shahri) yashil moliyalashtirish

88 Muallif tomonidan tuzilgan.

instrumentlarini joriy etish va ESG (Environmental, Social, Governance) standartlarini qo'llash orqali xizmat ko'rsatish sektorini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Resurs mintaqalarida (Navoiy, Buxoro viloyatlari) ekologik toza qazib olish texnologiyalarini joriy etish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish klasterlarini shakllantirish zarur.

Xulosa. Xulosa qilib, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish – bu bugungi avlodning ehtiyojlarini qondirish bilan birga, kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsiz va iqtisodiy barqaror muhitni ta'minlashning ilmiy asoslangan strategik yo'nalishidir. Mintaqaviy differensiatsiyani hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo'llash ushbu jarayonning samaradorligini va barqarorligini ta'minlaydi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston uchun nafaqat ekologik majburiyat, balki iqtisodiy diversifikatsiya, energiya xavfsizligini mustahkamlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning strategik imkoniyatidir. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy elektr balansidagi ulushi 2019–2024-yillarda 12,3% dan 23,0% ga yetishi va buning natijasida yiliga 2,73 mlrd m³ tabiiy gaz tejash imkoniyati yaratilishi ushbu yo'nalishning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

Mintaqa turlari bo'yicha differensial yondashuvni qo'llash yashil iqtisodiyot siyosatining samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

- Agrar mintaqalarda suv tejamkor texnologiyalar va organik dehqonchilikni rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega;
- Industrial mintaqalarda energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini kengaytirish zarur;
- Postindustrial mintaqalarda yashil moliyalashtirish va ESG standartlarini joriy etish imkoniyatlari mavjud;
- Resurs mintaqalarida ekologik toza qazib olish texnologiyalari va o'rmon muhofazasi tizimlarini takomillashtirish lozim.

Ushbu differensial yondashuv har bir mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yashil iqtisodiyot strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi.

Institutsional islohotlar va xalqaro hamkorlik yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning hal qiluvchi omillaridir. Jahon bankining iCRAFT loyihasi doirasida qo'lga kiritilgan grant mablag'lari moliyaviy baza sifatida xizmat qilmoqda. Biroq, yashil investitsiyalarni jalb moliyaviy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mintaqa miqyosida suv-energiya resurslarining o'zaro bog'liqligi (nexus) yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishni taqozo etadi. O'zbekistonning quyosh va shamol energiyasi salohiyatini qo'shni davlatlarning

gidroresurslari bilan integratsiya qilish mintaqaviy energiya tizimining barqarorligini oshirishi mumkin.

Ilmiy va amaliy tavsiyalar:

1. Yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlarini monitoring qilishning yagona milliy tizimini joriy etish;
2. Mintaqaviy tafovutlarni hisobga olgan holda har bir mintaqaviy guruh uchun maxsus yashil iqtisodiyot dasturlarini ishlab chiqish;
3. "Yashil bank" va uglerod bozori mexanizmlarini kengaytirish orqali xususiy investitsiyalarni jalb qilish;
4. Qayta tiklanuvchi energiya, suv samaradorligi va chiqindilarni qayta ishlash sohalarida innovatsion klasterlarni rivojlantirish;
5. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yashil texnologiyalar va amaliyotlar almashinuvini kuchaytirish;
6. Ekologik soliq islohotlari va "aylana iqtisodiyot" tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish.

Adabiyotlar ro`yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori, 04.10.2019.
2. World Bank. Uzbekistan - Country Climate and Development Report. Washington, D.C.: World Bank Group. http://documents.worldbank.org/curated/en/
3. Uzbekistan discloses volume of green energy production in 2024. https://www.trend.az/casia/uzbekistan/3924324.html.
4. auic.uz (2025). How Much Green Energy Has Uzbekistan Produced? https://auic.uz/en/how-much-green-energy-has-uzbekistan-produced/.
5. Policy research outreach. (2023). Greening the Economy in Uzbekistan: State of Play in 2023 Monitoring progress based on the OECD Green Growth Indicators.
6. Guo, H., & Li, S. (2024). A Review of Drip Irrigation’s Effect on Water, Carbon Fluxes, and Crop Growth in Farmland. *Water*, *16*(15), 2206. https://doi.org/10.3390/w16152206.
7. FAO. (2016). Organic agriculture has real potential in Central Asia. https://www.fao.org/family-farming/detail/en/c/428406/.
8. World Bank (Liu & Tromop. 2016). Designing Effective National Programs to Improve Industrial Energy Efficiency. https://documents1.worldbank.org/curated/en/pdf.